



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 458 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilorom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
<i>Каримбаев Ниятбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	
The Role of Identity, Motivation, and Investment in Teaching English at School (Experimental Study)	160
<i>Shahobova Sitara Baxromovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos pedagogik modeli	166
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida tikuvchilik va dizayn ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari	169
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlari	172
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: rus tili fanini o'qitishda	176
<i>Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari	182
<i>Xidirova Nodira Abduganiyevna</i>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kompetensiyasi	185
<i>Eshmuratova Gauxar Maxsudovna</i>	
Frazeologik birliklar identifikatsiyasi	188
<i>Omadjon Azamov Burxonovich</i>	

O'smirlik davrida empatiya rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotning ta'siri	192
Qodirova Zebuniso Malikovna	
Pedagogical Mechanisms for Enhancing the Competitiveness of Higher Education Services in the Context of Socio-Economic Globalization	197
Babayeva Lola Ibragimovna	
Integrativ yondashuv asosida talaba qizlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishning dolzarbligi	202
M. X. To'xtamishева	
Murakkab nuqsonli bolalarni umumta'lim maktablariga tayyorlash jarayonida logopedning kommunikativ malakasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.....	207
Abdubokiyeva Adiba Baxodir qizi	
Oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish	211
Adashova Guljaxon Muxammadjonovna	
STEAM yondashuvi asosida tayyorlov guruh bolalarining bilish faoliyatini faollashtirishning samarali yo'llari	215
G. B. Maxmudova	
Bo'lajak oligofreno-pedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	219
Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt asosida ta'lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish	223
Jumanazarova G. U.	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish texnologiyalari	227
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Mamatqulova Sarbarxon Axmadjon qizi	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	230
Kayumova Nargiza Mirziyatovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi	
Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalari	233
Mirabzalova Zaxro Shuhrat qizi	
Oliy ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirishini tashkil qilish	238
Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi	
Формирование интеллектуальных умений детей старшего дошкольного возраста в условиях цифровой образовательной среды	242
Скрыльников Юрий Степанович	
Динамика становления профессионально значимых личностных качеств будущих педагогов.....	246
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Hamid Olimjon ijodining shakllanishidagi manbalar va ijodiy omillar.....	250
U. A. Jumanazarov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari moslashuvining psixologik yondashuvi	254
G. R. Ibragimova, Abdulkarimova Dilfuza	
Tarixiy obidalar asosida tasviriy san'at talabalari ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	258
Qurvanboyeva Diyora Muzaffar qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda sotsial intellekt va shaxslilik kamolotning o'zaro bog'liqligi	262
Avlayev Orif Umirovich	
AR texnologiyasi asosida kompyuter arxitekturasini o'qitishni takomillashtirishning pedagogik asoslari....	267
Saidkarimxonova Dilnozaxon Saidazizxon qizi	
Sun'iy intellektning ixtisoslashgan ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash sifatini oshirishdagi o'rni	273
Ubbiyev Alisher Tairovich	
Inklyuziv ta'lim bo'yicha respublikada olib borilayotgan faoliyat	277
Sattorova Mohira Aminqulovna	
Tasviriy faoliyat jarayonida maktabgacha tayyorlov guruh bolalarida emotsional intellektni shakllantirish .	281
Namzabayeva Lola Zakirovna, Malikova Umida Nurliboy qizi	
Sport maktablarida 12–14 yoshli gandbolchilarda to'pni ilish va uzatish texnikasini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish	285
Ismatullayeva Fotima Rustam qizi	



Методология изучения этнопсихологических аспектов понимания долга перед родителями: цели, задачи и гипотезы исследования	289
Эргашев П. С., Азимова Х. А.	
Uzluksiz ta'lim tizimida metakompetensiyalarni rivojlantirish strategiyalari va ularning tasnifi	292
Xurramov Anvar Jumanazarovich	
Fundirlash konsepsiyasi – kelajak pedagoglarining asosiy poydevori	296
G'oyimov Umar Eshmurodovich	
Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan metodik ta'minotning hozirgi holati: tahliliy o'rganish.....	301
Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna	
Pedagogik metod: intellekt xaritalar yordamida lazerlarning amaliyotda qo'llanilish sohalarini vizuallashtirish	307
Olimjonova Nigina Sobirjon qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish	312
G. R. Ibragimova, Normamatova Rayhona Alisher qizi	
Pedagogik o'yinlar va interaktiv faoliyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rni	317
Qodirova Sevara Shuxratovna	
Shaxs psixikasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.....	325
Boboyeva Maxsuda Ataxonovna, Rajapboyeva Ozoda Shuxrat qizi, Karimova Malohat O'rinboy qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning sifat samaradorligi	329
Hasanova Dilnora Rustam qizi, Ehnazarov Jo'raqul	
Integratsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirishning metodik tizimi.....	333
Boynazarova Munajat	
O'yin faoliyati orqali kasbga yo'naltirish mexanizmlari.....	337
Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna, Toshmurodova Marjona	
Модель методического сопровождения педагогов доо в развитии математической грамотности и логического мышления старших дошкольников на основе игровых технологий	340
Гаухар Джанпеисова	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining baholash malakasini rivojlantirish muammolari va imkoniyatlari	347
Majidova Hilola Eshquvat qizi	
Формирование коммуникативной компетенции студентов на занятиях узбекского и иностранных языков: интегративный подход	351
Турланова Сауле Дадажановна	
Ta'lim jarayonida digital storytelling metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning ijodiy yozuv kompetensiyasini shakllantirish.....	357
Maxsetova Zuxra Torebayevna	
Futbol mashg'ulotlarida kreativ yondashuvlarni qo'llash amaliyoti	361
Karimov Odiljon Baxadirovich	
Oliy ta'limda talabalarining kreativligini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari (amaliy matematika yo'nalishi misolida).....	364
Samatova Munira Dilshod qizi	
Подготовка к школе как условие развития коммуникативных умений у детей дошкольного возраста с тяжёлыми нарушениями речи	368
Ахмедова З. М., Абдурахмонова М. А.	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirishga talaba motivatsiyaviy-qadriyatli munosabatlari tizimi shakllanganligi darajalari va ularning sifatiiy tavsifi	373
Ergasheva Matluba Burxonovna	
Ritmik va ijodiy gimnastika mashqlari orqali bolalarda estetik didni shakllantirish metodlari.....	378
Kamchiyev Salimberdi Xudayberdiyevich	

Interaktiv ta'lim platformalari asosida informatika va axborot texnologiyalari faniga oid kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi.....	382
Karimov Feruz Raimovich	
Koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda qo'llaniladigan zamonaviy usullar	386
Mamasiddikova Maftuna Akbarjon qizi	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining media savodxonligini oshirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari.....	389
Masharibova Lobar Rayimberganovna	
Duduqlanuvchi bolalarda verbal muloqot ko'nikmalarini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish.....	393
Mirtoeyeva Shohruza Ibjohimjon qizi	
Maktab voleybol sport to'garaklari mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanish	396
Ortug'mat Jumanov, Zarina Abdusattarova	
Talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etish omillari va mexanizmlari.....	400
Raxmatova Nargiza Dolibayevna	
Bola nutqining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy va ijobiy muhit omillari. XXI asr taraqqiyotida nutq faoliyatining shakllanishi.....	403
Ro'ziyeva Nozimaxon Oybek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ijodkorligini ijtimoiy-pedagogik faoliyatda rivojlantirish texnologiyasi.....	406
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Butayeva Gavhar Xudoyorovna	
Fan va tabiatni tanishtirish orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarni rivojlantirish usullari	410
Sh. T. Musulmonova	
15-17 yoshgacha bo'lgan kurashchilarni yillik yuklamalarini taqsimlash	413
Qirgiboyev Shaxbozbek Aslidin o'gli, Xamidjonov Muhammadbobir Ulug'bek o'gli	
Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....	416
Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li	
O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri	419
Toshpo'latova O'giloy Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni shaxsiy rivojlantirish.....	422
Turdiyeva Raxima Kurbanovna	
Matnli topshiriqlar vositasida ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	426
Yulbarsov Ochilbek Obidjon o'g'li, Isayeva Gulnur Shakirjanovna	
Методы исследования сенсомоторных эффектов и внимания у детей дошкольного возраста.....	432
Г. С. Алиходжаева	
Роль театрализованной деятельности в формировании представлений о родине у дошкольников ..	436
Г. С. Алиходжаева, У. О. Мамадалиева	
Логическое мышление детей 5–7 лет в вариативном дошкольном образовании: нормативные основания и концептуальная модель	440
Г. Э. Джанпеисова, В. В. Горбунова, Э. З. Убайдуллаева	
O'qitishning maqsad va vazifalarini talabalarning bo'lajak pedagogik faoliyatini modellashtirish sifatida ...	444
Murodova Umida Dilmurodovna	
Развитие прагматической компетенции аудирования с помощью инновационных технологий в обучении немецкому языку	449
Саидова Махсудахон Аббасовна	
Развитие профессиональной подготовки будущих воспитателей в системе высшего педагогического образования.....	452
Собирова Пошшаой Эркин кизи	
Современные педагогические концепции и структурные элементы игровых технологий.....	455
Хафизова Машхура Аминовна	

MAKTAB VOLEYBOL SPORT TO'GARAKLARI MASHG'ULOTLARIDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH

UDK 796:37

Ortug'mat Jumanov

Professor, pedagogika fanlari nomzodi, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

ORCID: 0009-0004-2244-2683

Zarina Abdusattarova

Tayanch doktorant, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

ORCID:0009-0002-8150-7489

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablari voleybol sport to'garagi mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanishning pedagogik va metodik jihatlarini tahlil qilindi. Harakatli o'yinlarni o'quvchilarning yosh hamda psixofiziologik xususiyatlariga mos ravishda tanlash zarurligi ilmiy asoslandi. 5–6 va 7–8-sinf o'quvchilari uchun mos o'yinlar tizimlashtirilib, ularning voleybolning asosiy texnik elementlari – to'pni o'yinga kiritish, uzatish, qabul qilish va mo'ljalga olish ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berildi. Tadqiqot natijalari harakatli o'yinlardan tizimli foydalanish mashg'ulot jarayonining samaradorligini oshirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish hamda o'quvchilarning sportga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Maqolada amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: voleybol sport to'garagi, harakatli o'yinlar, texnik ko'nikmalar, jismoniy sifatlar, yosh xususiyatlari, mashg'ulot samaradorligi.

Abstract: The article analyzes the pedagogical and methodological aspects of using active games in school volleyball club training sessions. The necessity of selecting games according to students' age and psychophysiological characteristics is scientifically substantiated. Active games for grades 5–6 and 7–8 are systematized, and their role in developing fundamental volleyball technical elements – serving, passing, receiving, and targeting skills – is revealed. The results indicate that systematic use of active games enhances the effectiveness of the training process, contributes to the development of physical qualities, and increases students' motivation for sports activities. Practical recommendations for organizing training sessions are also presented.

Key words: volleyball club, active games, technical skills, physical qualities, age characteristics, training effectiveness.

Аннотация: В статье проанализированы педагогические и методические аспекты использования подвижных игр на занятиях школьного волейбольного кружка. Научно обоснована необходимость подбора игр с учетом возрастных и психофизиологических особенностей учащихся. Систематизированы подвижные игры для 5–6 и 7–8 классов и раскрыта их роль в формировании основных технических элементов волейбола – подачи, передачи, приема и целевого удара. Результаты исследования показали, что систематическое использование подвижных игр способствует повышению эффективности учебно-тренировочного процесса, развитию физических качеств и усилению мотивации учащихся к занятиям спортом. В работе представлены практические рекомендации по организации занятий.

Ключевые слова: волейбольный кружок, подвижные игры, технические навыки, физические качества, возрастные особенности, эффективность тренировочного процесса.

KIRISH

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, ularni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish hamda sportga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi ^[4]. Ushbu jarayonda sport to'garaklari, xususan maktab voleybol sport to'garaklari o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, sportga oid texnik ko'nikmalarni shakllantirish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Voleybol sport to'garaklari mashg'ulotlarining samaradorligini ta'minlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan bir qatorda o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega.



Shu jihatdan harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida eng samarali pedagogik vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Harakatli o'yinlar mashg'ulot jarayonini faollashtiradi, o'quvchilarning diqqatini jamlashga yordam beradi hamda voleybolning asosiy texnik elementlarini o'zlashtirishni yengillashtiradi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, harakatli o'yinlardan foydalanish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Usmonxo'jayev va hammualliflar [8,9] tomonidan ishlab chiqilgan harakatli o'yinlar tasnifi maktab sharoitida sport mashg'ulotlarini tashkil etishda muhim metodik manba hisoblanadi.

Saidnazarov [7] esa harakatli o'yinlarning texnik ko'nikmalarni shakllantirish, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish hamda mashg'ulot samaradorligini oshirishdagi pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda harakatli o'yinlardan voleybol mashg'ulotlarida foydalanish o'quvchilarning texnik-taktik ko'nikmalarini mustahkamlashda samarali ekanligi qayd etilgan [6]. Biroq mavjud ilmiy manbalarda harakatli o'yinlarning maktab voleybol sport to'garaklari faoliyatiga moslashtirilgan holdagi tizimli yondashuvi yetarli darajada yoritilmagan.

Maqolaning maqsadi: maktab voleybol sport to'garaklari mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: harakatli o'yinlarning voleybol mashg'ulotlaridagi pedagogik ahamiyatini asoslash; o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos harakatli o'yinlarni tanlash; mashg'ulot jarayonida harakatli o'yinlardan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola umumta'lim maktablarida voleybol sport to'garagini tashkil etish jarayonini metodik jihatdan tahlil qilish asosida tayyorlandi. Ish jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Harakatli o'yinlar yosh xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi va voleybolning asosiy texnik elementlariga mosligi nuqtai nazaridan tanlab olindi hamda tizimlashtirildi. O'yinlar 5–6 va 7–8-sinf o'quvchilari uchun alohida guruhlariga ajratildi. Metodik modellash asosida harakatli o'yinlarning voleybol mashg'ulotlari samaradorligiga ta'siri tahlil qilindi. Tanlangan o'yinlar orqali to'pni o'yinga kiritish, uzatish, qabul qilish va mo'ljalga olish kabi texnik ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Harakatli o'yinlarning voleybol mashg'ulotlaridagi ahamiyati. Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Ular o'quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish hamda mashg'ulot jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi. Voleybol mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning texnik-taktik ko'nikmalarini shakllantirish, o'yinga moslashish, tezkor qaror qabul qilish va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Harakatli o'yinlarning pedagogik ahamiyati shundaki, ular mashg'ulot jarayonini qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etish imkonini beradi. O'quvchilar o'yin faoliyati orqali to'pni uzatish, qabul qilish, zarba berish va blok qo'yish kabi voleybolning asosiy texnik elementlarini tabiiy tarzda o'zlashtiradilar. Shu bilan birga, harakatli o'yinlar jamoaviylik, raqobatbardoshlik va o'zaro muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi [1].

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, harakatli o'yinlar mashg'ulotlarni o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi [2,5]. Ular orqali muvozanat, tezlik, koordinatsiya, diqqatni jamlash va tezkor fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Bundan tashqari, harakatli o'yinlar mashg'ulot jarayonida ijobiy emosional muhitni shakllantirib, o'quvchilarning sport faoliyatiga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshiradi.

Umuman olganda, voleybol sport to'garagi mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan tizimli foydalanish o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bilan bir qatorda texnik-taktik ko'nikmalarni samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, harakatli o'yinlar voleybol mashg'ulotlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Harakatli o'yinlarni yosh xususiyatlariga ko'ra tasniflash. Voleybol sport to'garagi mashg'ulotlarida qo'llaniladigan harakatli o'yinlar o'quvchilarning yosh, jismoniy tayyorgarlik darajasi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda guruhlariga ajratildi. Har bir o'yin voleybol texnik elementlarini shakllantirish hamda muayyan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qaytishi bilan ur. Devordan taxminan 3–5 metr uzoqlikda kegli yoki savatcha joylashtiriladi. O'yinchi to'pni devorga otadi va devordan qaytgan to'p nishonga tegishi kerak. Nishonga tegsa 1 ochko beriladi. Har bir ishtirokchiga 5 tadan imkoniyat beriladi. Eng ko'p ochko to'plagan o'yinchi g'olib deb topiladi [2].



Orqadan ot va ilib ol. O'yinchi ikki qo'li bilan to'pni orqa tomonda ushlab turadi, oldinga egilib to'pni boshi ustidan oldinga otadi va keyin havoda tushayotgan to'pni ilib oladi. Har bir ishtirokchiga 7–9 tadan imkoniyat beriladi. To'pni eng ko'p ushlab olgan o'yinchi g'olib bo'ladi ^[3].

Himoyadan hujumga. O'quvchilar ikki jamoaga bo'linishadi. Maydonda jamoalar 15 metr uzoqlikda chiziqli bo'ylab joylashadilar. Bir jamoaning har bir o'yinchisida to'p bo'ladi. Signaldan so'ng o'yinchilar qarshi jamoa o'yinchilariga to'pni uloqtirib, raqibga tekkizishlari kerak bo'ladi. Qarshi jamoa esa to'pni ushlab olishi kerak. To'pni ushlay olmagan o'yinchi o'yinni tark etadi. Jamoalar navbat bilan to'plarni otishadi. O'yinchilari birinchi tugagan jamoa mag'lub bo'ladi ^[2].

To'pni aniq oshir. Mazkur o'yinda voleybol maydonchasining chap tomoniga stul (yoki belgilangan nishon) o'rnatiladi. O'yinchilar navbat bilan to'pni maydonning o'ng tomonidan voleybol to'ri ustidan oshirib, belgilangan stulga aniq tekkizishga harakat qiladilar. Har bir ishtirokchiga 5 tadan urinish imkoniyati beriladi. Berilgan urinishlar davomida nishonga eng ko'p marta aniq zarba bergan o'yinchilar g'olib deb topiladi ^[5].

Doira ichida to'p. O'yin jarayonida o'yinchilar diametri taxminan 1 metr bo'lgan doira ichida joylashadilar. Doiraning tashqarisiga 5–10 dona tennis koptoklari qo'yib chiqiladi. O'yinchi tennis koptoklaridan birini bir necha metr balandlikka otadi va to'p havoda bo'lgan paytda yerda turgan koptoklardan imkon qadar ko'prog'ini olib, doira ichiga joylashtirishga harakat qiladi. Shundan so'ng otilgan to'pni yerga tushirmasdan ilib olishi lozim. Vazifani to'liq va aniq bajargan hamda doira ichiga eng ko'p koptok joylashtirgan o'yinchi g'olib deb topiladi ^[3].

Nishonga ur. O'yinchilar ikki jamoaga bo'linadilar. Start chizig'idan taxminan 10 metr masofada zarba berish chizig'i belgilanadi. Ushbu chiziqdan yana 10 metr uzoqlikda devorga nishon osiladi yoki devorda doira chiziladi. O'yinchilar navbat bilan zarba berish chizig'iga kelib, nishonga qarata to'pni yuqoridan zarba berish orqali o'yinga kiritadilar. Zarba berilgandan so'ng qaytgan to'p olinadi va navbatdagi sherigiga topshiriladi. O'yin shu tartibda davom ettiriladi. Belgilangan vaqt ichida vazifani birinchi bo'lib bajargan va nishonga eng ko'p marta aniq zarba bergan jamoa g'olib deb topiladi ^[9].

To'pni to'g'ri uzat. O'yinda ikki jamoa o'yinchilari bir-biriga qarama-qarshi saf tortib joylashadilar. Jamoalar orasidagi masofa taxminan 20 metrni tashkil etadi. Jamoalar o'rtasida, har bir jamoadan 10 metr masofada ustun o'rnatiladi. O'qituvchi signalidan so'ng har bir jamoadan ikki nafardan o'yinchi voleybol to'pini havoda, faqat barmoqlar yordamida bir-biriga uzatgan holda ustun tomon harakatlanadilar. Ustunga yetib, qo'l tekkizgach orqaga yugurib qaytadilar va to'pni navbatdagi juftlikka topshiradilar. O'yin jarayonida to'pni ilib olish taqiqlanadi. Vazifani xatolarsiz bajargan va o'yinni birinchi bo'lib yakunlagan jamoa g'olib deb topiladi ^[2].

Quduq (ukrain xalq o'yini). Mazkur o'yinda maydonchada xalqalar yordamida ikkita "quduq" hosil qilinadi. O'yinchilar ikki jamoaga bo'linib, quduqlardan taxminan 5 metr masofada bir qatorda saf tortib joylashadilar. O'qituvchi signalidan so'ng har bir jamoadan birinchi o'yinchilar navbat bilan voleybol to'pini yuqoridan uzatish orqali quduq ichiga tushirishga harakat qiladilar. Agar to'p quduq ichiga tushsa, jamoaga 1 ochko beriladi.

To'p quduqni buzsa yoki tashqariga tushsa, 1 jarima ochkosi belgilanadi. O'yin belgilangan vaqt yoki urinishlar soni davomida o'tkazilib, eng ko'p ochko to'plagan jamoa g'olib deb topiladi ^[9].

To'rtta to'p. O'yinda ikki jamoa voleybol maydonchasining qarama-qarshi tomonlarida joylashadi. Har bir jamoadan ikki nafardan o'yinchidan iborat juftliklar to'pni o'yinga kiritish chizig'i yonida saf tortadilar. Har bir jamoaga ikkitadan voleybol to'pi beriladi. O'qituvchi signalidan so'ng juftliklar bir vaqtda to'plarni o'yinga kiritadilar. Agar jamoa maydonida bir vaqtning o'zida uchta to'p paydo bo'lsa yoki o'yinga kiritilgan to'p maydon tashqarisiga tushsa, to'rt ostidan o'tsa, ushbu jamoaga –1 ochko belgilanadi. Har bir ochkodan so'ng to'pni navbatdagi juftliklar o'yinga kiritadi. O'yin jarayonida o'yinchilar voleybol qoidalariga o'xshash tarzda soat mili yo'nalishida almashib turadilar. –10 ochko to'plagan jamoa mag'lub hisoblanadi ^[8].

1-jadval: Voleybol sport to'garagida qo'llaniladigan harakatli o'yinlarning metodik tasnifi

№	O'yin nomi	Yosh guruhi	Qo'llash shakli	Voleybol elementi	Jismoniy sifat	Pedagogik vazifasi	Davomiyligi
1	Qaytishi bilan ur	5-6-sinf	individual	zarba aniqligi	chaqqonlik	harakat aniqligini shakllantirish	10-12 daq
2	Orqadan ot va ilib ol	5-6-sinf	individual	to'p nazorati	tezkorlik	reaksiya tezligini oshirish	8-10 daq
3	Himoyadan hujumga	5-6-sinf	jamoaviy	to'pni qabul qilish	chaqqonlik, chidamkorlik	jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish	12-15 daq
4	To'pni aniq oshir	7-8-sinf	individual	to'pni to'g'ri uzatish	kuch, chaqqonlik	diqqatni jamlash	10-15 daq
5	Nishonga ur	7-8-sinf	individual	yuqoridan zarba berish	kuch, tezkorlik	mo'ljalga olish ko'nikmasini rivojlantirish	10-12 daq



6	To'pni to'g'ri uzat	7-8-sinf	juftlik	to'pni uzatish	chaqqonlik	juftlikda ishlash ko'nikmasini rivojlantirish	10-15 daq
7	Quduq	5-6-sinf	individual	mo'ljalga olish	chaqqonlik	diqqatni jamlashni rivojlantirish	8-10 daq
8	To'rtta to'p	7-8-sinf	jamoaviy	to'pni o'yinga kiritish	tezkorlik	vaziyatni tez baholash	10-15 daq

Metodik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, voleybol sport to'garagi mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan tizimli foydalanish texnik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini maqsadli tashkil etish imkonini beradi. Tanlangan o'yinlar yosh xususiyatlariga mos ravishda guruhlariga ajratilib, 5–6-sinflar uchun jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, 7–8-sinflar uchun esa yuqoridan to'pni o'yinga kiritish, uzatish hamda mo'ljalga olish elementlarini mustahkamlashga yo'naltirildi. Mazkur yondashuv mashg'ulot jarayonida texnik harakatlarni takroriy va qiziqarli shaklda bajarishga sharoit yaratadi hamda o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantiradi. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar har bir o'yinning muayyan texnik element va jismoniy sifat bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Harakatli o'yinlar o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda tanlanishi lozim.

O'yinlar mashg'ulotning asosiy qismiga kiritilib, o'rganilayotgan voleybol texnik elementi bilan bevosita bog'lanishi zarur.

Harakatli o'yinlardan tizimli (haftasiga kamida 2 marotaba) foydalanish mashg'ulot samaradorligini oshiradi.

O'yin jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va ijobiy emotsional muhit yaratish muhim hisoblanadi.

XULOSA

Harakatli o'yinlardan maqsadli va tizimli foydalanish voleybol sport to'garagi mashg'ulotlarida texnik ko'nikmalarni samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Yosh xususiyatlariga mos tanlangan o'yinlar mashg'ulot jarayonini faollashtiradi hamda o'quvchilarning texnik va jismoniy tayyorgarligini uyg'un rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois harakatli o'yinlarni voleybol mashg'ulotlari tizimiga metodik asosda joriy etish pedagogik amaliyotda tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayzullo o'g'li S.S. Yosh voleybolchilarni tayyorlashda jismoniy sifatlarning va harakatli o'yinlar o'rni. – 2024;
2. Mamatov Sh.N. Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: ToshDTU, 2020. – 164 b;
3. Normurodov A.N., Usmonxo'jayev T.S. 210 harakatli o'yinlar. – Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2001. – 164 b;
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Maktab sport to'garaklarini tashkil etish bo'yicha metodik ko'rsatmalar: Qaror №452, 15 iyul 2018. – Toshkent, 2018;
5. Pulatov A.A., Ummatov A.A. Sport va harakatli o'yinlar (voleybol): o'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'zkitobsavdonashriyoti", 2020. – 224 b;
6. Qizi X.U.A. Voleybolni o'rgatishda harakatli o'yinlar yordamida jismoniy sifatlarni rivojlantirish. Central Asian Journal of Academic Research, 2025, 3(5–2), 103–107;
7. Saidnazarov A.U. Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish uslubiyati: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Lesson Press", 2022. – 206 b;
8. Usmonxo'jayev T., Tolipjonovich A. 500 harakatli o'yinlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 320 b;
9. Usmonxo'jayev T., Xo'jaev F. 1001 o'yin: o'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: "Ibn Sino", 1990. – 351 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.